

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA, O'QITISH SIFATINI OSHIRISHDA, O'QUVCHILARDA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XIZMATNI AHAMIYATI

Razakov Farxod Kuvandikovich  
Samarqand davlat chet tillari instituti

“Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrası o'qituvchisi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'rsatilgan muammoning dolzarbligi shundan kelib chiqadiki. Maktablarda o'qitish sifatini oshirishda. Insonda bolalik va yoshlik davrini psixik rivojlanishi uchun bola tug'ilganidan boshlab, har bir yosh davri imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqaradigan qilib hayoti rejalashtirilishi, shart-sharoitlar yaratilishi hamda psixologik xizmat imkoniyatlaridan o'rinli foydalanilishi haqida so'z yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: maktab, psixologik muhit, o'qitish sifati, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, ontogenez, predmetli-manipulyativ faoliyat, psixologik xizmat.*

## ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ

Разakov Фарход Кувандикович

Самаркандский государственный институт иностранных языков Преподаватель кафедры «Гуманитарные науки и информационные технологии»

*Аннотация: Актуальность проблемы, изложенной в этой статье, заключается в том, что. В повышении качества обучения в школах. Для психического развития человека в период детства и юности с момента рождения ребенка необходимо спланировать его жизнь таким образом, чтобы возможности каждого возрастного периода были полностью раскрыты, были созданы условия, а возможности психологической службы были использованы надлежащим образом.*

*Ключевые слова: школа, психологическая среда, качество обучения, психолого-педагогические условия, онтогенез, предметно-манипулятивная деятельность, психологическая служба.*

## THE IMPORTANCE OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL SERVICES IN STUDENTS IN HIGH SCHOOLS, IN IMPROVING THE QUALITY OF TEACHING

Razakov Farxod Kuvandikovich

Samarkand State Institute of foreign languages  
Teacher of the Department "Humanities and information technology"

*Annotation: The relevance of the problem shown in this article follows from this. In improving the quality of teaching in schools. A person is told about the life planning, the creation of conditions and the appropriate use of psychological service opportunities, from the birth of a child to the development of childhood and youth in the psyche, to the full potential of each age.*

*Keywords: school, psychological environment, quality of teaching, psychological and pedagogical conditions, ontogenesis, subject-manipulative activity, psychological service.*

So'nggi yillar davomida barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator strategik islohotlar amalga oshirildi. Hozirgi globallashuv sharoitida amaliy psixologiyaning shiddat bilan rivojlanishi jarayonida psixologik xizmat zamonaviy sifatli ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Umumta'lim maktablarida psixologik xizmatni rivojlantirish borasida mustaqillikdan so'ng muayyan vazifalar bajarilgan bo'lsa-da, so'nggi ikki-uch yilda soha taraqqiyoti uchun misli ko'rilmagan darajada ishlar amalga oshirildi, deyish mumkin. Maktablarda Psixologik xizmat ta'lim sifatini oshirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda katta ahamiyat kasb etadigan yo'nalishlardan biri bo'lib, inson, shaxs salomatligini, tarbiyalanuvchi, maktab o'quvchilarning har tomonlama, komil inson sifatida rivojlanishini, ta'lim jarayonida shaxslararo munosabatlarning maqsadga muvofiqligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi va say-harakatlari natijasida nisbatan qisqa vaqt ichida ta'lim psixologik xizmatini amalga oshiruvchi mutaxassis – psixolog ommaviy va nufuzli kasblardan biriga aylanmoqda. Psixolog – ayni kunda jamiyat ehtiyojlarini qondirishda, yosh avlodning aqliy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan yangi kasbiy

faoliyat turlaridan hisoblanadi. Ayni vaqtda psixologlar maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, turli, shu jumladan, reabilitatsiya, korreksiya, rivojlantiruvchi, bolalar, o'quvchilar va yoshlarga, aholining turli qatlamlari vakillariga tibbiy-psixologik-pedagogik ko'mak berish yo'nalishidagi markazlarda faoliyat yuritmoqdalar. Dastlab, ta'limda psixologik xizmat tushunchasini oydinlashtirib olish zarur. Bu borada bir qator ta'riflar mavjudligiga qaramay, barcha olim va mutaxassislar tomonidan yagona, bir xil e'tirof etilgan ta'rif mavjud emasligini ta'kidlamoqchimiz.

Bu esa o'ziga xos tarixga ega bo'lishiga qaramay, ta'limdagi psixologik xizmat psixologiya fanining rivojlanib kelayotgan murakkab amaliy soha, tarmog'idan biri ekanligidan dalolat beradi. Ta'limda psixologik xizmati – mamlakat ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bola, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga nisbatan yondashuv ta'lim psixologik xizmatining maktabgacha va xalq ta'limi tizimiga tegishli quyidagi yo'nalishlarini belgilab beradi:

Har bir yoshdagi bola bilan uning imkoniyatlari, salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida ishlarni amalga oshirish; □ bolaning o'ziga xos, individual xususiyatlari – qiziqishlari, qobiliyati, ijodiy moyilligi va intilishlari, his-tuyg'usi, munosabatlari, hayotiy rejalari va hokazolarni rivojlantirish; bola, o'quvchi maqsadga muvofiq rivojlanishi uchun (bog'cha, internat, maktabda) qulay psixologik muhit, iqlimni yaratish, bunda bir tomondan bolaning o'z tengdoshlari va yoshi kattalar bilan samarali muloqotini ta'minlash, ikkinchi tomondan bolaning ontogenez (hayoti davomi)dagi rivojlanish bosqichlarida uning uchun ahamiyatga ega faoliyat turlaridagi shaxsiy muvaffaqiyatga erishish vaziyatlarini namoyon qilib borish; nafaqat bolalar, balki ularning ota-onasi, tarbiyachilari va o'qituvchilarini ham o'z vaqtida psixologik qo'llab-quvvatlash va ularga psixologik yordam ko'rsatish.

Ta'kidlanganidek, ta'lim psixologik xizmati – davlat ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri ekan, uning maqsadi – maktabgacha ta'lim va xalq ta'limi tizimidagi tarbiyalanuvchilar, o'quvchilarning psixologik salomatligini ta'minlash, asosiy vazifasi – barcha yosh davrlaridagi tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning psixik, psixofiziologik va shaxsiy rivojlanishiga yordam berish, ko'maklashish. Bunda har bir yosh davridagi bolaning imkoniyatlarini risoladagidek namoyon qilish uchun maqbul psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmat to'g'risida mulohaza yuritganimizda, u mazkur tizimning bir qismi, unsuri ekanligini nazardan qochirmasligimiz lozim. Ta'lim tizimining boshqa xizmatlari (pedagogik, boshqaruv, ijtimoiy, tibbiy, huquqiy, ovqatlanish, gigiyena va h.k.) kabi psixologik xizmatning ham asosiy vazifasi yoshlarning ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal etishga yo'naltirilgandir. Umumta'lim maktablarida o'qitish sifatining samaradorligi undagi xizmatlar va tegishli mutaxassis majburiyatlarining qay darajada amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Biroq bunda xizmatlarning har biri, shu jumladan psixologik xizmat ham ta'lim tizimining umumiy maqsadlaridan tashqari professional tayyorlangan mutaxassislar amalga oshiradigan o'z konkret maqsad, vazifalariga egadir. Ta'limda psixologik xizmatida bunday mutaxassislar pedagog-psixologlar hisoblanishadi.

Umumta'lim maktablarida o'qitish sifatini oshirishda psixolog va psixologik xizmatnin o'rni muhim ro'l o'ynaydi shunday ekan, O'quvchining rivojlanish darajasiga, uning imkoniyatlari, qobiliyatlari, xarakter xususiyatlari, shaxsiy munosabat va istaklari mazmuniga bog'liq tarbiyaviy ta'sirlar tizimini aniqlashga imkon beruvchi yakka tartibdagi tarbiyaviy ish davom etadi, o'qitish sifatini oshirishda tarbiyaning umumiy metodlarini qo'llash xarakterlidir, ammo ularni ma'lum shaxsga nisbatdan tanlanishi va tizimi uni individual xususiyatlari va rivojlanish dasturiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda talab, istiqbol, jamoa fikri o'zgarishning bahosi va o'zi-o'ziga baho, rag'bat va jazo kabi individual pedagogik ta'sir etuvchi metodlar ham qo'llaniladi.

Bundan tashqari maktab psixolog va maktab shifokori bilan xamkorlikda o'quvchining tibbiy varaqasi bilan xam tanishib chiqishi kerak bo'ladi. Agar bola sog'lom rivojlangan bo'lsa-yu, maktab va oila tarbiyasiga bo'ysinmasa, Bunday vaziyatlarda psixolog yordamga kelishi va avvalo o'quvchi bilan suhbatlashib, nima uchun uning xulqida bunday o'zgarishning yuzaga kelganligi, ko'cha ta'siriga berilishi, salbiy norasmiy guruxlarga a'zo bo'lib qolishi, dasrni sababsiz qoldirishi, past o'zlashtirishi, jamoa ishlarida qatnashmasligi sabablarini aniqlaydi. O'quvchilardagi psixologik xususiyatlar, rivojlanishida o'ziga xos tomonlar, ular o'rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta'lim maktab amalyotchi psixologlari tamomidan bir qator tadbirlar, ya'ni psixotrening va psixokerrekison ishlar olib boriladi.

Amaliyotchi psixologlar "ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'quvchilar" bilan ishlashda sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yi direktor o'rinbosarlari, ota-onalar qo'mitasi,